

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

OKTYABR, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

KIMYO FANLARI

Narmanova Feruza, Ibragimov Aziz, Turayev Xayit, Toirova Gulshoda

Zn(II) NING 4-AMINOBENZOY KISLOTASI BILAN $\{[Zn(H_2O)_2(SO_4)_2](C_7H_7NO_2)_2\}_n$

KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI 5-9

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шухназар

РАЗРАБОТКА КОМПОЗИЦИОННЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЖЕЛЕЗОСОДЕРЖАЩИХ
ОТХОДОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕФТЕПРОДУКТОВ 10-16

Mirjalolova Nargiza

MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDA HUYUMLARNI ANIQLASHNING ILG'OR

TEKNOLOGIYALARI 17-23

TARIX FANLARI

Jo'raboyev Ulug'bek

TURKISTON ASSRDA SUD TIZIMI FAOLIYATI 24-26

IQTISODIYOT FANLARI

Суюнова Саодат

РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА 27-32

Ashurova Sitora

ENHANCING INFLATION FORECASTING THROUGH HYBRID ECONOMETRIC AND MACHINE
LEARNING APPROACHES IN EMERGING MARKETS 33-36

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING

IJTIMOIIY MEKANIZMLARI 37-42

FILOLOGIYA FANLARI

Norbekova Gulrux

INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI 43-46

Abdurahmonova Nilufar

LEKSIKOGRAFIYADA TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI 47-49

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ:
ВЫЗОВЫ ДЛЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА 50-53

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullayeva Ziroatxon

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH JARAYONIDA TALABALARDA
REFLEKTIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIK
IMKONIYATLARINI ANIQLASH 54-56

Shermatova Saxobaxon

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASH
JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY KONSEPSIYASINI
ASOSLASH 57-59

Baratova Yulduz

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK

ASOSLARI 60-65

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING TIBBIY-PEDAGOGIK

ASOSLARI 66-70

FILOLOGIYA FANLARI

INGLIZ TILIDA AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Norbekova Gulrux Xusan qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada afsunga oid birliklarning konseptual va semantik asoslari tahlil qilinadi. Afsun insonning irratsional tafakkuri va sakral madaniyatining ifodasi sifatida qaraladi. Ingliz tilidagi "charm", "incantation", "spell", "curse" kabi so'zlarning ma'nolari lingvistik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda afsunga oid birliklarning madaniy, ruhiy va ritual mazmuni yoritiladi.

Kalit so'zlar: afsun, sehr-jodu, charm, incantation, spell, curse, sakral madaniyat, semantika, konseptual tahlil, lingvokulturologiya, xalq og'zaki ijodi.

CONCEPTUAL BASIS OF SPELL-RELATED UNITS IN ENGLISH

Norbekova Gulrux Khusan kizi

PhD student at Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. The article analyzes the conceptual and semantic foundations of spell-related units. Spells are considered as an expression of human irrational thinking and sacred culture. The meanings of words such as "charm", "incantation", "spell", "curse" in English are studied linguistically. The study highlights the cultural, spiritual and ritual content of spell-related units.

Key words: spell, magic, charm, incantation, spell, curse, sacred culture, semantics, conceptual analysis, linguoculturology, folk oral art.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i9/n08>

Kirish. Afsun inson ma'naviyatining eng qadimiy ifodalaridan biri bo'lib, turli madaniyatlarda turli shakllarda saqlanib qolgan. Afsunlarning mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ular insonning irratsional fikrlashining samarasi sifatida sakral va madaniy ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu birliklar xalqning ruhiy holati, ishonch tizimi va rituallari bilan chambarchas bog'liqdir [1].

Afsunga oid birliklarni o'rganish zaruriyatini sakral dunyoqarashni anglash, sakral madaniy merosni saqlashga qaratiladi. Bu ham tilshunoslik ham lingvopsixologik jihatdan ahamiyatli bo'lib, ushbu lingvistik vositalar yordamida afsunga oid qadriyatlarni psixologik jihatdan ishonch tizimini o'rganish imkonini beradi. Afsunga oid so'z va iboralar xalq tarixi va madaniyatini, ilohiyotga yo'naltirilgan qarashlari, ularni o'rab turgan olam va tabiat borasidagi sacral bilimlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, afsunlar tildagi qadimiy qoldiqlarni aniqlash va ularning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun muhim obyekt sanaladi. Shu boisdan, afsunlarga oid birliklarning semantik, konseptual va ritual asoslarini aniqlash va ularning zamonaviy ahamiyatini o'rganish bir nechta zamonaviy fan tarmoqlarining obyektiga aylangan.

Afsun insonning irratsional tafakkuri va sakral madaniyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Turli madaniyatlarda afsunning ko'rinishlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning asosiy vazifasi umumiydir, ya'ni inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni tiklash, qo'rquvni

yengish, ishonchni oshirish va insoniyat o'zini o'z hisoblagan voqea va hodisalarni boshqarishga harakat qilish.

Afsunlar xalq og'zaki ijodi va tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida rituallar, marosimlar va folklorda namoyon bo'ladi. Sehr-jodu ko'plab mifologiyalar, fantastik adabiyotlar, o'yinlar va xalq og'zaki ijodining asosiy elementlaridan biridir. Sehr g'oyasi so'zlar, harakatlar yoki buyumlar orqali g'ayritabiiy kuchlarni yo'naltirish va ma'lum bir natijaga erishishga asoslanadi.

Afsun va sehr-jodu so'zining leksik ma'nosiga to'xtalib o'tsak, lug'atlarda u quyidagicha ta'riflanadi: "sehr-jodu bu g'ayritabiiy kuchlarni chaqirish yoki boshqarish orqali kerakli natijaga erishish uchun mo'ljallangan formula yoki marosimdir. Bu jodular oddiy duolardan tortib, murakkab ilohiy iboralarigacha bo'lib, ko'pincha aniq bajarilishni talab qiladi" [4]. Ingliz tilidagi afsunga oid leksik birliklar va ular bilan bog'liq boshqa matn turlari (masalan, duolar) o'rtasida aniq chegara chizish qiyin. Bir nechta tadqiqotchilar aynan afsun va unga oid leksik birliklarni qanday aniqlash va farqlash kerakligi borasida olib borgan tadqiqotlari har doim ham aniq bo'lmagan. Anglosakson afsun matnlarining katta to'plamini tahrir qilgan Feliks Grendon o'zi afsun deb hisoblaydigan birlik uchun aniq ta'rif bermagan, ammo u afsunni qandaydir "xurofot" e'tiqodiga asoslangan, matnning bir qismini o'qishni buyuradigan va qandaydir marosim harakatini o'z ichiga oladigan birlik sifatida ko'rib chiqadi [2]. Godfrid Storms ham afsunga ta'rif berishni e'tibordan chetda qoldiradi, lekin Grendonning afsun haqidagi tushunchalariga o'xshash jihatlari bor bo'lgan sehrga ta'rif beradi. Storms sehrni jismoniy sezgilar bilan idrok qilib bo'lmaydigan tarzda ishlaydigan va an'anaviy marosim vositasida amalga oshiriladigan shaxsiy bo'lmagan kuchni qo'llash san'ati sifatida tavsiflaydi [3].

Storms va Grendon afsunlarni qandaydir "xurofotli" yoki sirli e'tiqodlarga tayanishi bilan ajralib turadi deb hisoblaydilar va bu e'tiqodlarni mantiq va empirik haqiqatga bog'liq emas deb bilishadi. Ushbu tadqiqot uchun biz afsun so'ziga ta'rif berishda Grendon va Stormsning ta'riflariga qo'shilgan holda, uni quyidagicha ta'riflaymiz: afsun bu – biror sehrli marosim harakatlarini bajarishga yordam beruvchi, muayyan muammoni hal qilishga ko'maklashuvchi, masalan, jismoniy yoki ruhiy zararlarni davolashga yordam beruvchi, odatda ma'lum darajadagi ijro elementiga ega bo'lgan yoki maqsadli tuzilgan, marosim faoliyatiga asoslangan leksik birlik yoki matn.

Bizning tadqiqotimiz uchun Ingliz tilidagi afsunga oid leksik birliklarni xususan, "Charm", "Incantation", "spell", "Curse" kabi so'zlarning etimologiyasini va ular o'rtasidagi farqlarni o'rganish muhimdir, chunki shu orqali ingliz afsun va sehr-jodu birliklarining maqsad va vazifalarini bilish va tushunish mumkin. "Charm" so'zi o'zida lotincha "carmen" so'zining ma'nosini aks ettiradi va "carmen" so'zi og'zaki va eshitish orqali ifoda etilishini anglatadi [5]. Shu sababli, "charm" so'zi matnlarning ijro etilish xususiyatlarini o'z ichiga oladi va "charm" uchun ishlatilgan anglosaksoncha atama *galdor* bilan bog'lanadi. *Galdor* kabi so'zlar glossalarda (*incantata* uchun) zaburlarda va bibliya tarjimalarida uchraydi va u jodugarlik, sehr va afsunlarni anglatadi. Biroq, "charm" so'zi bilan bog'liq salbiy tushunchalar ham mavjud: g'ayritabiiylik, xurofot va mantiqsizlik. Aslida, muqobil sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan ko'plab so'zlar (*spell*, *incantation*) ham salbiy tushunchalar bilan bog'liqdir. Alternativ ravishda, charmni shunchaki "sehrli matnlarning ijrosi" deb atash mumkin. Ishonchli manba sifatida tanlangan MacMillan English dictionary for advanced learners lug'atida esa "charm"ga

quyidagicha ta'rif beriladi: "ot so'z turkumi sifatida bu so'z sehrli kuchga ega bo'lgan birikma yoki birlik ma'nosida, fe'l sifatida esa, sehrdan kimnidir va nimanidir boshqarishda foydalanish ma'nolarini beradigan so'z [6].

"*Charm*", "*incantation*", "*spell*" va "*curse*" so'zlari sehr yoki g'ayritabiiy kuchlarning ayrim tur va shakllarini ifodalovchi leksik birliklar bo'lib, ular orasida aniq farqlar mavjud:

1. Charm - kengroq ma'noga ega bo'lib, so'z, ibora yoki jismoniy obyektlardan (tumor, amulet) iborat bo'lishi mumkin. Bu omad chaqirish, himoya qilish yoki shifo berish uchun ishlatiladigan yozma yoki og'zaki shakldagi so'zlardir. Odatda charmning maqsadi zararli kuchlardan himoya qilish yoki yaxshi natija olishdir. O'zbek tilida esa tumor, tuhfalar, duo kabi so'zlarning ma'nosini berishi mumkin. Misol uchun: Tumorning ustiga "himoya" so'zlari yozilishi yoki "Xudo saqlasin" kabi iboraning ishlatilishi.

2. Incantation - ma'lum bir sehrli kuchni faollashtirish uchun o'qiladigan yoki kuylanadigan ritmik, marosimiy so'zlardir. Ular odatda faqat og'zaki shaklda bo'ladi va ko'pincha maxsus ritm va intonatsiyada o'qiladi. Shuningdek, ular sehrli ta'sir ko'rsatish maqsadida ishlatiladi. O'zbek tilida esa afsun, duoni o'qish ma'nosida ishlatiladi. Misol uchun: ruhlarni chaqirish yoki sehr kuchini ishga tushirish uchun maxsus iboralarni ritmik o'qish.

3. Spell - biror natijani amalga oshirish uchun ma'lum bir ketma-ketlikda aytiladigan yoki yoziladigan sehrli so'zlardan iborat bo'ladi. Ular to'liq marosimdan tashkil topgan bo'lib, so'zlar, harakatlar va ba'zida narsalarni o'z ichiga oladi. Ko'pincha ma'lum bir effekt (sevgi, qasos, sog'liq) olish uchun ishlatiladi. Spell odatda batafsilroq va kengroq ritualning bir qismidir. Misol: "Sevgi afsuni" yoki biror kishiga zarar yetkazish uchun bajariladigan afsun.

4. Curse - so'zi "la'nat" yoki "qarg'ish" kabi tushunchalarni ifodalaydi va salbiy ma'noda ishlatiladi. Bu so'z odamga, narsaga yoki vaziyatga zarar yetkazish niyati bilan aytiladigan so'zlarni anglatadi. Curse ko'pincha ruhiy yoki mistik kuchlarga murojaat qilgan holda amalga oshiriladi. Uning o'zbek tilidagi tarjimasi ma'no jihatidan "la'nat, qarg'ish, duo-yu badduo" so'zlariga to'g'ri kelishi mumkin.

Ingliz tilidagi *charm*, *incantation*, va *spell* so'zlariga o'zbek tilida aniq, to'liq ekvivalentlar yo'q, chunki bu so'zlar sehr va mistik madaniyatga xos tushunchalarni ifodalaydi. Ammo ularning umumiy ma'nolariga mos keluvchi o'zbekcha so'zlar yoki ifodalarni keltirish mumkin. O'zbek tilida esa bu so'zlar odatda diniy yoki xalq og'zaki ijodiga xos tushunchalar bilan ifodalanadi. Sehr-jodu va afsungarlik haqida gap ketganda, "afsun" va "jodu" kengroq ishlatiladi, "tumor" esa himoya vositasi sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, jadvaldagi so'zlar orasidagi asosiy farqlar quyidagicha:

1. **Charm** – Ko'pincha ijobiy ma'noda, himoya qilish yoki omad tilash bilan bog'liq.
2. **Incantation** – Maqsadli va odatda marosimiy so'zlar. Neytral yoki ijobiy ma'noda ishlatiladi.
3. **Spell** – Sehr-jodu bilan bog'liq, har qanday maqsadda, ijobiy yoki salbiy ishlatilishi mumkin.
4. **Curse** – Faqat salbiy ma'noda, zarar yoki jazo yetkazish uchun ishlatiladi.

Sehr-joduning asosiy tarkibiy qismlari odatda quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

Xulosa. Xulosa qilib aytsak, zamonaviy davrda afsun va sehr-jodular mo'jiza, qiziqish va sir ramzi sifatida namoyon bo'lib, ularning qiyofasi kino, adabiyot va boshqa san'at turlarida aks etgan. Masalan, *Abracadabra* kabi qadimiy afsunlar bugungi kunda ham sehrgarlarning shoularida ishlatiladi va universal sehrli so'z sifatida qabul qilingan. Shuningdek, sehrli oyna,

vaqtni boshqaruvchi quticha va uchuvchi supurgi kabi tushunchalar ham inson tasavvurining cheksizligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Eliade, M. Shamanism: Archaic Techniques of Ecstasy. Princeton University Press. 1964. P. 45
2. Felix Grendon, 'The Anglo-Saxon Charms', The Journal of American Folklore 22 1909. P. 105.
3. Godfrid Storms, Anglo-Saxon Magic. Nijhoff: The Hague, 1948, P. 36.
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Incantation>
5. <https://www.online-latin-dictionary.com/latin-english-dictionary.php?parola=carmen>
6. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Bloomsbury publishing. 2012. P. 241.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 9-son (oktyabr, 2025-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-oktyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.